



## Moral upbringing is as a basis of psychological upbringing

Barno NORBEKOVA<sup>1</sup>

Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

#### *Article history:*

Received September 2021  
Received in revised form  
15 September 2021  
Accepted 20 October 2021  
Available online  
15 November 2021

#### *Keywords:*

family,  
spirituality,  
spiritual and moral  
appearance,  
social significance of the  
family,  
education and upbringing,  
education of intelligence,  
labor education,  
physical education.

### ABSTRACT

The article examines how spirituality and strong moral experiences of a person are actually solved within the family. Which then becomes socially significant, subsequently it is concluded that spirituality is the solid root of all education.

2181-1415/© 2021 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Ma'naviy tarbiya – psixologik tarbiya asosi sifatida

### ANNOTATSIYA

#### *Калит сўзлар:*

oilada, ma'naviyat,  
ma'naviy-axloqiy qiyofa,  
oilaning ijtimoiy vazifasi,  
ta'lim va tarbiya,  
aql tarbiyasi,  
mehnat tarbiyasi,  
jismoniy tarbiya.

Maqolada insonning ma'naviyati ham, buyuk tajribalari ham, aslida, oilada qaror topishi, so'ngra u ijtimoiy ahamiyat kasb etib borishi yoritilgan bo'lib, ma'naviyat – barcha tarbiyalarning mustahkam ildizi ekanligi to'g'risida mulohazalar yuritiladi.

<sup>1</sup> Senior lecturer of the Department of "Psychology", Jizzakh Branch of the National University of Uzbekistan. Jizzakh, Uzbekistan.

## Духовное воспитание – как основа психологического воспитания

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

семья,  
духовность,  
духовно-нравственный  
облик,  
социальное значение  
семьи,  
образование и воспитание,  
воспитание интеллекта,  
трудовое воспитание,  
физическое воспитание.

В статье рассматривается, то как духовность и сильные моральные переживания человека на самом деле решаются внутри семьи. Которые, затем становятся социально значимыми, впоследствии делается вывод о том, что духовность является прочным корнем всего воспитания.

Oilaning ma'naviy-axloqiy qiyofasi asrlar mobaynida ajdodlarimizning bilim va tajribalari, madaniy qadriyatlarini asosida, shuningdek, zamondoshlarimizning erishgan va erishayotgan yutuqlari negizida barpo bo'ldi va takomillashib bormoqda. Oilaning mavjudligi uning ana shu vazifalarini bajarishi bilan uzviy bog'liqdir.

*Dono xalqimizda "Oilalari mustahkam bo'lgan, ravnaq topgan mamlakat qudratli va farovon bo'ladi",* – degan hikmat bor. O'zbek oilasi o'zining bolajonligi, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning samimiyligi, or-nomusning kuchliligi, yoshlarga izzat, keksalarga hurmat kabi fazilatlarini bilan alohida ajralib turadi. Sharqda ota oilaning boshlig'i, uning ta'minotchisi va posboni bo'lsa, ona esa uning ko'rki, orastaligi va fayzidir. Farzandlar esa oila gulshanining g'unchalari hisoblanadi. Farzand oila muhitida ulg'ayar ekan, uning barcha xulq-atvorida atrof-muhit va oilaga bo'lgan munosabat, kelajakda o'zining oila qurishi, farzandlar tarbiyalashi haqidagi fikrlari ham shakllanib boradi.

Agarda oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, kattalarga hurmat, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllansa, kelajakda oila qurgach, uning o'zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Demak, yangi oila, yangi avlodning shakllanishida oiladagi ijtimoiy, iqtisodiy muhit, demografik vazifalarning bajarilishi asosiy omillardan bo'lib hisoblanadi. Oila – har birimizning ichki imkoniyatlarimizni namoyon etuvchi aziz go'sha. Insonning ma'naviyati ham, buyuk tajribalari ham, aslida, oilada qaror topadi, so'ngra u ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bir bobi (14-bob) oila munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 63-moddasida shunday ta'kidlanadi:

“Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”. Ota-onalarning o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqishi va tarbiyalashi hamda voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalariga g'amxo'rlik qilishi majburiyligi kabi umuminsoniy qadriyatlar Konstitutsiyamizda o'zining munosib ifodasini topgan.

Oila faqat kishi shaxsini hurmat qilish yoki bo'lmasa, er-xotinga ma'lum bir mas'uliyat yuklash vositasigina bo'lmay, balki ma'naviyat tarqatish, an'analarga rioya qilish manbai, jamiyatning ma'naviy poydevoridir. Oila ma'naviyati xalqimizning bir necha ming yillarga tutash milliy qadriyatlarini mustahkamlash bilan bog'liq.

Ma'lumki, ta'lim va tarbiya shaxsni kamol toptirishning asosiy usullari bo'lib, u turli ijtimoiy institutlar, muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga qaratilgan ijtimoiy faoliyat va tadbirlar tizimi bo'lib hisoblanadi. Ta'lim- tarbiya kishilar, avvalo, yoshlar ongi va ruhiyatiga ta'sir etish orqali inson shaxsini shakllantirishdan iborat yaxlit ijtimoiy jarayondir.

Ta'lim deganda, asosan, bilim berish nazarda tutiladi. Bilim kishilarning tafakkur doirasini kengaytiradi, ongi-shuuriga ta'sir etadi, ularning dunyoqarashini shakllantiradi va rivojlantiradi. Ta'lim ,oxir-oqibatda, insonga ijtimoiy hayotning turli sohalarida o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Ta'lim o'z o'rnida tarbiyani taqozo etadi. Tarbiya - kishilarga ta'sir etishning muayyan shakli. Tarbiya tufayli inson jamiyatda yashash, faoliyat ko'rsatish maromlarini o'zlashtiradi. Tarbiya – ajdodlarni avlodlarga, bugunni kelajakka bog'lovchi vosita. Tarbiya - insonning shaxs bo'lib kamol topishining muhim omili. Tarbiya tufayli odam voqelikka, boshqa odamlarga, jamiyatga, ijtimoiy tuzumga ongli munosabatda bo'lishni o'rganadi. Jamiyatda ishlab chiqilgan axloqiy, huquqiy, estetik me'yor va qoidalarni o'zlashtirish orqali odam jamiyatning faol a'zosiga aylanadi.

Mamlakatimiz istiqboli, xalqimizning ertangi kuni ko'p jihatdan farzandlarning qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. **“Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”**, – deya alohida ta'kidlaganlar Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov.

“Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va ,albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar bu masalada hushyorlik va sezgirlikimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda, o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin”.

Sharqning taniqli faylasuflaridan biri, shoir Mirzo Abdulqodir Bedil ta'kidlaganidek, *“Avval g'ishtni qiyshiq qo'yarkan me'mor, yulduzga yetsa ham qiyshiqdir devor”*. Darhaqiqat, insonning ma'naviy qiyofasini ham ulkan binoga qiyos qilish mumkin. Agar odamga yoshlikdan to'g'ri tarbiya berilmas ekan, ulg'aygach, uni to'g'ri yo'lga solishning imkoniyati bo'lmaydi. Shu bois mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlash bilan birgalikda, yuksak ma'naviyatli barkamol avlod tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Inson va uning ma'naviy kamoloti uchun shart- sharoitlar yaratish bugungi kunda amalga oshirilayotgan islohotlarimizning asosiy maqsadini tashkil etadi. Xalqimizning boy ma'naviy-intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlar, iqtisodiyot, fan, madaniyat va zamonaviy texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish mamlakatimiz taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

**“Ma'naviyat – barcha tarbiyalarning mustahkam ildizidir”**, – deb bejiz aytilmagan xalqimizda. Zero, odob-axloq va ta'lim-tarbiya asli ma'naviyatdan boshlanadi. Ma'naviyat insonning ichki dunyosi, qalbi va ongi bilan bog'liq bo'lib, uning butun vujudi, faoliyati, xatti-harakatlarini belgilovchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy va shu kabi tasavvurlari majmuidir. Tarbiya – har bir insonning hayotda yashash jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatining ijobiy ko'nikmasini o'zgalarga berish yoki o'zgalardan olish jarayoni.

Inson – tabiatning eng buyuk ne'mati. Unga aql-idrok, ong-farosat kabi buyuk fazilatlar ato etilganki, tarbiya yo'li bilan inson bu fazilatlarga sayqal beradi va rivojlantiradi. Tarbiyaning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ular fikr tarbiyasi, aql tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, jismoniy tarbiya va boshqalardan iborat.

**Fikr tarbiyasi** – inson faoliyati, uning o'zligi va kuch-qudratini tashkil qiluvchi ma'naviy sifat. Insonning erki va ozodligi uning fikr erkinligi va mustaqilligi bilan bog'liq. Insonning qolgan barcha mavjudotlardan farqli jihati – bu uning fikrlash qobiliyatidir. Shuningdek, insonlar bir-biridan o'ziga xos o'y-xayollari, mushohadalari, ongli faoliyat yuritishi, mustaqil fikrlash va tafakkur qilish qobiliyati bilan ajralib turadi.

Tafakkur esa arabcha “mutafakkir” so'zidan olingan bo'lib, *ma'noli, chuqur fikrlash qobiliyati* degan ma'nolarni anglatadi. Inson hayotining dastlabki davrlarida tafakkur tabiat hodisalarini anglash, ulardan yashash uchun foydalanish yoki o'zini muhofaza qilish shaklida bo'lgan. Asta-sekin inson tafakkuri rivojlanib, yashash va mehnat qilishning moddiy hamda ma'naviy shakllari vujudga kela boshlagan. Shu asosda insonlar orasidagi mahsulot ayriboshlash munosabatlari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni keltirib chiqargan. So'z mulkingning sultoni, buyuk mutafakkir alloma Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi:

*Ki har ishni qilmish odamizot,*

*Tafakkur birla yetmish odamizot.*

Odam biror ishni qilarkan, albatta tafakkur qilishi kerak. Ya'ni fikr chig'irig'idan o'tkazib, o'ylab ko'rib, so'ngra bajarishi lozim. Aksincha, atroflicha o'ylamasdan, chuqur fikrlamasdan qilingan ish odamning boshiga kulfatlar keltirishi mumkinligi yuqoridagi satrlarda o'zining she'riy ifodasini topgan. Ayni paytda, tafakkurning inson hayoti va faoliyati uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi uqtirilgan.

O'zbek pedagogikasining rivojiga katta hissa qo'shgan, ma'rifatparvar yozuvchi Abdulla Avloniy o'zining “Turkiy guliston yoxud axloq” nomli asarida fikr tarbiyasi haqida to'xtalib, quyidagilarni ta'kidlaydi:

“Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinib kelgan, Muallimlarning diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Fikr insonning sharofatli, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'ladi. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng darajada muhtojdirki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'liqdir. Dars ila tarbiya orasida biroz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga bog'langan jon ila tan kabidir”.

Ma'rifatparvar bobokalonimiz fikr tarbiyasining asoslari haqida to'xtalar ekan, uning o'qituvchi-murabbiylarimizga bog'liq, muallimlarning yordamiga muhtoj va vijdoniga havola etilgan muqaddas vazifa ekanini alohida qayd etgan. Demak, yosh avlodning tafakkur tarbiyasi masalasi pedagoglar hamda o'qituvchi-murabbiylar zimmasiga jiddiy va mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi. Har bir o'qituvchi-murabbiy, qolaversa, har bir inson ushbu mas'uliyatni yuksak darajada anglab yetishi, o'zining tafakkur dunyosini muntazam ravishda boyitib borishi va ularni o'sib kelayotgan yosh avlod bilan baham ko'rishi bugungi kunda har qachongidan ham muhimroq ahamiyat kasb etmoqda.

**Aql tarbiyasi** inson uchun baxt eshiklarini ochuvchi va yo'l ko'rsatguvchidir. Insonni ulug'lash, uning qadriga yetish, o'sib kelayotgan yosh avlodni aql-idrokli, odobli va axloqli qilib tarbiyalash, ularni har tomonlama kamolotga yetkazish bugungi kunda, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aql kishining o'z irodasi, qalbi va fikri asosida dunyoviy, hayotiy haqiqatlarni anglash va ularga o'z faoliyatida insoniy nuqtayi nazardan amal

qilishdir. Inson aqli tufayli oqni qoradan, yaxshini yomondan ajratib oladi. Odamning aql-idroki bo'lmasa, uning odobi yuzaki va sun'iy bo'ladi. Bundaylarning odamligini bilib turasiz, biroq odamiyligi yo'qligidan nafratlanasiz.

**Mehnat tarbiyasi** har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda alohida o'rin tutadi. Insonning kundalik turmush tarzi uning mehnat faoliyati bilan bog'liq. Mehnat inson hayotining zaruriy shartidir. U inson uchun faqat moddiy yoki ijtimoiy zarurat emas, balki ma'naviy-ruhiy ehtiyoj hamdir. Mehnat tarbiyasi oilada yanada keng ko'lamda amalga oshiriladi. Oila boshliqlari va farzandlarning birgalikda mehnatni tashkil qilishi inson hayotida nihoyatda katta imkoniyatlar yaratadi. Kasbga bo'lgan mehr, mutaxassislikka doir bilim va ko'nikmalar mehnat tarbiyasi asosida shakllanadi.

**Jismoniy tarbiya** inson a'zolarining sog'lom o'sishini ta'minlashi bilan birgalikda ularni aqliy va ma'naviy kamolotga yetaklaydi. *"Sog' tanda – sog'lom aql"*, deb bejiz aytilmagan. Jismoniy tarbiya kishilarning tana salomatligini mustahkamlab, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko'rishga ko'maklashadi. Jismoniy tarbiya, sport har qanday yoshda insonning qaddi-qomatini go'zal qilish, kuch-quvvatini oshirish vositasi hisoblanadi. Barkamol avlodni jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va chidamli, qat'iyatli vatanparvar farzandlarni kamol toptirishdir.

Biz yuqorida tarbiyaning ayrim muhim turlari xususida to'xtalib o'tdik, xolos. Tarbiyaning bundan boshqa bir qancha turlari bo'lsa-da, barchasi oxir-oqibat ma'naviyat tushunchasidan oziq oladi. Ko'rinadiki, ma'naviyat ana shu barcha tarbiya vositalari va turlariga mustahkam zamin yaratadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat" – 2008. – B. 62.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoki axloq. – T.: "O'qituvchi", 1967. – B. 28.
3. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2010. – B. 12.
4. M.J. Boltaeva, O.Kh. Ortikov. (2020). Views of eastern thinkers on the development of intellectual abilities in the scientific heritage. *Academicia An International Multidisciplinary Research Journal* Vol. 11 Issue 1, January 2021. – PP. 211–214.
5. K.V. Murotmusaev, M.Z. Dzhelyalov, M.J. Boltaeva. Psychological Aspects of Human Health And The Power Of Love. *The American Journal of Applied sciences*. February 25, 2021 – PP. 73–77.
6. B.U. Nasirov, M.J. Boltaeva. "Genesis And Transformation Of The Public Catering System In Uzbekistan During The Soviet Period" *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI)* Volume 12, Issue 7, July 2021. – PP 5834–5841.
7. M.J. Boltaeva, O.Kh. Ortikov. Features of the scientific heritage of eastern thinkers about the attitude of parents to the child. *Society and innovations. Special Issue – 2 (2021)* PP. 469–474.